

## KONSTITUTSIYA – HUQUQIY DAVLATNING ASOSI

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti  
Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 301-guruh talabasi  
Tursunboyeva Sarvinoz*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Konstitutsianing huquqiy davlat qurilishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Konstitutsiya davlatning asosiy huquqiy hujjati sifatida qonun ustuvorligi, inson huquqlarining himoyasi, va hokimiyatlar bo'linishi tamoyillarini belgilaydi. Maqolada Konstitutsianing davlat va jamiyat rivojlanishidagi o'rni, xalqaro tajriba va O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tamoyillari o'rganiladi. Shuningdek, huquqiy davlat barpo etishda Konstitutsianing islohotchi roli va fuqarolik jamiyat shakllanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashda konstitutsiyaviy normalarning muhimligini ko'rsatib beradi.

**Abstract:** This article analyzes the importance of the Constitution in the construction of a legal state. The Constitution, as the main legal document of the state, defines the principles of rule of law, protection of human rights, and separation of powers. The role of the Constitution in the development of the state and society, international experience and the constitutional principles of the Republic of Uzbekistan are studied in the article. Also, the reforming role of the Constitution in the establishment of a legal state and its importance in the formation of civil society are analyzed. The article shows the importance of constitutional norms in strengthening the principles of the legal state.

**Аннотация:** В данной статье анализируется значение Конституции в построении правового государства. Конституция как главный правовой документ государства определяет принципы верховенства закона, защиты прав человека и разделения властей. В статье изучаются роль Конституции в развитии государства и общества, международный опыт и конституционные принципы Республики Узбекистан. Также анализируется реформирующая роль Конституции в становлении правового государства и ее значение в формировании гражданского общества. В статье показано значение конституционных норм в укреплении принципов правового государства.

**Kalit so'zlar:** konstitutsiya, Huquqiy davlat,Qonun ustuvorligi,Hokimiyatlarning bo'linishi, Inson huquqlari, Fuqarolik jamiyat, Xalqaro tajriba, Islohotlar, Huquqiy tamoyillar

**Key words:** constitution, rule of law, rule of law, separation of powers, human rights, civil society, international experience, reforms, legal principles

**Ключевые слова:** конституция, верховенство права, верховенство права, разделение властей, права человека, гражданское общество, международный опыт, реформы, правовые принципы.

Konstitutsiyaning milliy rivojlanishdagi roli va Fuqarolik jamiyati shakllanishida ahamiyati katta va dolzarb hamda keng qamrovli masaladir.

Avvalambor -Konstitutsiya fuqarolik jamiyatining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, chunki u fuqarolarning huquqlarini va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolar o‘rtasida adolatni ta’minlash uchun asosiy vosita hisoblanadi. Fuqarolar o‘z huquqlarini bilib, ularni amalga oshirishda davlatdan qo‘llab-quvvatlash olishlari mumkin.

Huquqiy davlat barpo etishda konstitutsiyaning islohotchi roli ham alodida etiborga loyiq masaladir.

Konstitutsiya huquqiy davlatning asosiy hujjati sifatida davlatning barcha tizimlarini isloh qilishga yordam beradi. Masalan, sud-huquq tizimidagi islohotlari, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini kafolatlash, hamda ijtimoiy-siyosiy tizimdagagi barcha muammolarni hal etishda konstitutsiya asosiy dastur bo‘lib xizmat qiladi. Huquqiy davlatning eng muhim belgisi — qonun ustuvorligidir. Konstitutsiya orqali qonunlarning ustuvorligi ta’milanadi, barcha shaxslar, jumladan, davlat hokimiyati organlari ham qonunga bo‘ysunishga majbur bo‘ladi. Hokimiyatlar bo‘linishi tamoyili esa davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasidagi vakolatlarning aniq taqsimlanishini va ular o‘rtasida nazoratni ta’minalaydi.

Bundan tashqari Xalqaro tajriba va O‘zbekiston konstitutsiyasida ham bir qancha ustunlik va bogliqlik jihatlari bor. Tahlil qiladigan bo‘lsak, “Dunyo mamlakatlaridagi konstitutsiyaviy tuzum tajribasi”.

Dunyo mamlakatlarida konstitutsion tuzum va ularning davlat tuzumi bo‘yicha tajribalar turlicha. Masalan, AQShda "Checks and Balances" tizimi, Germaniya va Fransiya konstitutsiyalari esa ko‘p partiyaviy tizimni rivojlantirgan. Har bir mamlakatning konstitutsiyasi o‘zining milliy xususiyatlariga qarab shakllangan va huquqiy davlat tamoyillarini amalga oshirishda samarali bo‘lgan. Shuningdek bizning bosh, oliy qomusimiz ham ana shunday muhim va dolzarb masalalarni o‘zida aks ettirgan. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, konstitutsiya nafaqat davlatning huquqiy tizimini shakllantiradi, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, AQSh, Germaniya, Fransiya va boshqa rivojlangan davlatlarning konstitutsiyalari demokratik boshqaruv va barqaror jamiyat qurilishida asosiy rol o‘ynagan. O‘zbekiston ham o‘z Konstitutsiyasida xalqaro tajribaning ilg‘or jihatlarini o‘zlashtirib, milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga erishdi.

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi:** asosiy tamoyillar va ularning ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan va shu vaqt dan boshlab mamlakatda huquqiy davlatni qurish asosida muhim hujjat bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek 2023-yil 30-aprel sanansida yangilangan O‘zbekiston konstitutsiyasi umumxalq ovoziga referendumga qo‘yildi va butun xalqimiz muallifligida qaytadan va qo’shimchalar qo’shildi. Konstitutsiyada inson huquqlari, qonun ustuvorligi, hokimiyatlarning bo‘linishi va boshqa tamoyillar kafolatlanadi. Konstitutsyaning qabul qilinishi yurtimiz O‘zbekistonning milliy o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda, modernizatsiya jarayonlarini boshlashga zamin yaratdi. Shuningdek konstitutsiyamizning 54-moddasida “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minalash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minalaydi”<sup>1</sup>-deb alohida belgilab o’tilgan. Kelgusida Konstitutsyaning inson huquqlari, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasidagi ahamiyati yanada oshadi. Texnologik taraqqiyot, global muammolar va xalqaro hamkorlikning kuchayishi sharoitida konstitutsiyaviy normalarni yanada takomillashtirish, ularni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish zarur. Shuningdek, huquqiy ongni oshirish va konstitutsyaning jamiyatdagi roli to‘g‘risida keng ommaga ta’lim-tarbiya berish masalalari ham dolzarbdir.

### **Xulosa**

Konstitutsiyamizning huquqiy davlat qurilishidagi o‘rni va istiqbollari keng qamrovli masaladir. Konstitutsiya huquqiy davlatning asosi bo‘lib, jamiyatdagi barcha ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi. U fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish, hokimiyatlar o‘rtasida vakolatlarni bo‘linishini ta’minalash, qonun ustuvorligini saqlash kabi masalalarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Umuman olganda, Konstitutsiya huquqiy davlatning nafaqat poydevori, balki uning davomiyligi va rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omildir. Shu boisdan, uning tamoyillariga amal qilish, uni takomillashtirish va aholi orasida keng targ‘ib etish mamlakatimiz O‘zbekistonning huquqiy, demokratik va barqaror jamiyat barpo etishdagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Konstitutsiya huquqiy davlatni qurish va uning barqaror faoliyatini ta’minalashda poydevor hisoblanadi. U davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari uchun asosiy huquqiy meyorlarni belgilab, jamiyatning barqaror va adolatli rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi. Konstitutsiya davlatning boshqaruvi tizimini tashkil etishdan tashqari, fuqaro va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solib, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yhati**

#### **1.O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 2023-yil**

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 54-modda

2. Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-dekabr.
3. Davlat huquq va nazariyasi 2019-y
4. A.Tadjibayev, K.R.Ramazonova “Inson huquqlari” o’quv qo’llanmasi
5. Raxmonqulov H.R Fuqarolik huquqi va muammolari:Darslik, I-qism.

